



Tadqiqot.uz



**ЎЗБЕКИСТОН
ОЛИМЛАРИ ВА
ЁШЛАРИНИНГ
ИННОВАЦИОН
ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ТАДҚИҚОТЛАРИ
МАВЗУСИДАГИ КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ**

2021

- » Ҳуқуқий тадқиқотлар
- » Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар
- » Тарих саҳифаларидаги изланишлар
- » Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни
- » Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни
- » Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар
- » Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар
- » Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши
- » Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши
- » Техника ва технология соҳасидаги инновациялар
- » Физика-математика фанлари ютуқлари
- » Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар
- » Кимё фанлари ютуқлари
- » Биология ва экология соҳасидаги инновациялар
- » Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари
- » Геология-минерология соҳасидаги инновациялар



**30 APREL
№27**

CONFERENCES.UZ

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 27-КЎП ТАРМОҚЛИ
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ
15 - ҚИСМ**

**МАТЕРИАЛЫ РЕСПУБЛИКАНСКОЙ
27-МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОЙ ДИСТАНЦИОННОЙ
ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИИ НА ТЕМУ "НАУЧНО-
ПРАКТИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ"
ЧАСТЬ-15**

**MATERIALS OF THE REPUBLICAN
27-MULTIDISCIPLINARY ONLINE DISTANCE
CONFERENCE ON "SCIENTIFIC AND PRACTICAL
RESEARCH IN UZBEKISTAN"
PART-15**

ТОШКЕНТ-2021



УУК 001 (062)
КБК 72я43

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" [Тошкент; 2021]

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" мавзусидаги республика 27-қўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 30 апрель 2021 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2021. - 15 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн конференция 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий конференцияси таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳлил қилинган конференцияси.

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

5. Давлат бошқаруви

Доцент Шакирова Шохидат Юсуповна (Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети)

6. Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобохонов Олтибой Рахмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Муסיқа ва ҳаёт

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқайом Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Рахмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

25.География

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг ҳаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

МУСИҚА ВА ҲАЁТ

1. Matchanova Laylo Xasanovna MUSIQA FANLARINI INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA O'QITISHNING SAMARADORLIGI.....	7
2. Raxmonberdiyeva Surayyo Mirg'aniyevna, Mohinur Xalillayeva MUSIQIY TARBIYA ESTETIK TARBIYANING MUHIM OMILI.	9
3. A'zamova Dilnavozxon Mansurxo'ja qizi O'ZBEK MUSIQA MADANIYATIDA XALQARO FESTIVALLARNING O'RNI	10
4. Raxmonberdiyeva Surayyo Mirg'aniyevna MUSIQA TINGLASH BADIY TA'LIM VOSITASI	12
5. Xudayberganova Ruhsora Norimboyevna MUSIQA DARSLARIDA ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH	13



МУСИҚА ВА ҲАЁТ

MUSIQA FANLARINI INNOVATION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA O'QITISHNING SAMARADORLIGI

Matchanova Laylo Xasanovna

Urganch tuman 19- sonli umumiy
o'rta ta'lim maktab musiqqa fani o'qituvchisi
Telefon: + 998 975147220
aziz. @mail.ru

Bugungi kunda davlatimiz tomonidan ta'lim muassasalarining ta'lim-tarbiya jaryonida, umumta'lim fanlari o'qitish bo'yicha innovatsion texnologiyalarni qo'llashga bo'lgan e'tibor kundan-kunga kuchayib va bunga bo'lgan talab tobora bormoqda. Bunday bo'lishining sabablaridan biri, bugungi kunlarga o'quvchilarga berib kelinayotgan an'anaviy ta'limda, ularni faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatib kelinganligidadir. Zamonaviy ta'limda innovatsion texnologiyalar esa ularni egallayotgan bilimlarni o'zlari qidirib topishga, mustaqil o'rganib, tahlil qilish, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishga o'rgatadi. Musiqa ta'limida o'qituvchi bu jarayonda o'quvchi shaxsning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik vazifasini bajaradi. Innovatsiya"- atamasi bu inglizcha so'zdan olingan bo'lib, "Innovation" -yangilik kiritish, yangilanish, nimanidir o'zgartirish degan ma'nolarni bildiradi. Bunday pedagogik hamkorlik jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib ularga:

- Musiqa fanlarini o'qitishda, o'quvchining dars davomida befarq bo'lmaslikka, mustaqil fikrlash, ijod etish va izlanishga majbur etilishi;

- Musiqiy ta'lim jarayonida o'quvchilarni fanga bo'lgan qiziqishlarini doimiylikining ta'minlash;

- o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishlarini mustaqil ravishda har bir masalaga ijodiy yondashgan holda kuchaytirilishi;

- pedagog va o'quvchilarning hamkorlikdagi faoliyatini muntazam tashkil etilishi kiradi.

Innovatsion texnologiyaning eng asosiy negizi o'qituvchi va o'quvchining belgilangan maqsaddan kafolatlangan natijaga hamkorlikda erishishlari uchun tanlangan texnologiyalarga bog'liq. Qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalar orqali ijobiy natijaga erishishda, o'quvchilar o'quv jarayonida mustaqil fikrlab, ijodiy izlanib, tahlil va xulosa chiqara olsalar, o'qituvchi tomonidan ularning bunday faoliyatlari uchun imkoniyat va sharoit yaratib bera olsagina bu texnologiyalar samara berishi mumkin.

O'quv jarayonidagi innovatsion pedagogik texnologiya – bu aniq ketma ketlikdagi yaxlit pedagogik jarayon bo'lib, o'quvchining ehtiyojidan va texnik imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda ma'lum bir maqsadga yo'naltirilgan, oldindan puxta loyihalashtirilgan va kafolatlangan natija berishga qaratilgan pedagogik jarayondir. Qo'yilgan maqsadni amalga oshirish va kafolatlangan natijaga erishish o'qituvchi va o'quvchining hakorlikdagi faoliyati hamda ular qo'ygan maqsad, tanlangan mazmun, metod, shakl, vositaga, ya'ni texnologiyaga bog'liq. O'qituvchi va o'quvchining hamkorlikda maqsaddan natijaga erishish uchun qanday texnologiyani tanlashlari ularning ixtiyorida, chunki har ikkala tomonning asosiy maqsadi aniq: natijaga erishishga qaratilgan. Bunda o'quvchilarning bilim saviyasi, guruh xarakteri, sharoitga qarab ishlatiladigan texnologiya tanlanadi. Masalan natijaga erishish uchun musiqa darslarida cholg'u asbobida asarni ijrosini ko'rsatib berish lozimdir, balki fanga oid video lavha (yoki tarqatma material, notalar chizmasi va plakat, axborot texnologiyasi, turli adabiyotlar) kerak bo'lar. O'qituvchi tomonidan har bir darsni yaxlit holatda ko'ra bilish va uni tasavvur etish uchun bo'lajak dars jarayonini oldindan loyihalashtirib olish kerak. Bunda o'qituvchi tomonidan bo'lajak darsning texnologik kartasini tuzib olish katta ahamiyatga egadir, chunki darsning texnologik kartasi har



bir mavzu, har bir dars uchun o`qitilayotgan fanning xususiyatidan, o`quvchilarning imkoniyati va ehtiyojidan kelib chiqqan holda tuziladi. Bunday texnologik kartani tuzish oson emas, chunki buning uchun o`qituvchi pedagogika, psixologiya, xususiy metodika, pedagogik va axborot texnologiyalaridan xabardor bo`lishi, shuningdek, juda ko`p metodlar va usullarni bilishi kerak bo`ladi. Har bir darsning rang-barang, qiziqarli bo`lishi avvaldan puxta o`ylab tuzilgan darsning loyihalashtirilgan texnologik kartasiga bog`liq. O`qituvchi tomonidan har bir mavzu, har bir dars bo`yicha tuzilgan shu kabi texnologik karta unga o`z fani, predmetini yaxlit holda tasavvur etib yondoshishga, tushunishga (bir chorak, bir o`quv yili bo`yicha), yaxlit o`quv jarayonining boshlanishi, maqsadidan tortib, erishilgan natijasigacha ko`ra olishga yordam beradi. Ayniqsa, texnologik kartani o`quvchining imkoniyati, ehtiyojidan kelib chiqqan holda tuzilishi, uni shaxs sifatida ta`limning markaziga olib chiqishga olib keladi. Bu esa o`qitish samaradorligini oshirishga imkoniyat yaratadi. Innovatsion texnologiyalarni darsda qo`llash jarayonida o`qituvchi kompyuter, elektron doska va videoproyektordan foydalansa, ya`ni tarqatma material shaklini ular vositasida namoyish qilib, bosqichlar ketma-ketligida tushuntirib borsa o`quvchilarning o`qituvchi tomonidan berilgan ko`rsatma va topshiriqlarni bajarishlari oson kechadi. Bunda savol beruvchi o`zini tanishtirib, boshqa guruhga shu guruh vazifasidan kelib chiqib savol beradi. Masalan "Ansambl rahbarlari" guruhiga "Siz o`z ansamblingizga qanday sozandalarni qabul qilgan bo`lardingiz?" degan savol bilan murojaat qilishi mumkin. "Ansambl rahbarlari" guruhidan ixtiyoriy bir vakil o`zini tanishtirib, berilgan savolga javob qaytaradi va hokazo. Bu texnologiyani qo`llash jarayonida o`qituvchi faollikni o`z qo`liga olib, guruhlarning javoblarini, savol-javob bosqichini diqqat bilan kuzatib boradi. Lozim bo`lsa berilgan javoblarni to`ldiradi, qo`shimcha ma`lumotlar beradi va o`quvchilarni rag`batlantirib, ularni baholaydi. O`quvchilarni guruhlarga bo`lib o`qitishda "Rolli va ishchanlik o`yinlari" texnologiyasidan foydalanilganda o`quvchilar tomonidan dastur materiallari to`liq o`zlashtiriladi, sinfdagi barcha o`quvchilarni baholash imkoniyati paydo bo`ladi. Natijada ularning o`qishga, fanga bo`lgan qiziqishi va faolligi oshadi. Ta`lim mazmuni o`quvchilar kuchiga mos tanlanganligi sababli ular tomonidan o`quv yuklamalarini o`zlashtirishda zo`riqish ro`y bermaydi, faol o`zlashtiruvchilarning esa chuqur va keng bilim olishga bo`lgan ehtiyoji qondiriladi.



MUSIQIY TARBIYA ESTETIK TARBIYANING MUHIM OMILI.

Raxmonberdiyeva Surayyo Mirg'aniyevna

Nizomiy nomidagi TDPU o'qituvchisi.

Telefon: +998946089410

s.raxmonberdiyeva@yandex.ru

Mohinur Xalillayeva

Musiqqa ta'limi yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada musiqqa rahbarining davlat talablari asosida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida musiqqa mashg'ulotlarini tashkillashtirishi va rejalashtirishi haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: Estetik, hissiyot, taassurot, idrok, ijro, qo'shiq, san'at, bastakor, asar, ifoda vositalari.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti bola tarbiyasida muhim bosqich sanaladi. Musiqqa tarbiyachisi bolalarni estetik va ahloqiy jixatdan tarbiyalashda alohida o'rin tutadi. Muassasadagi musiqiy tarbiya estetik tarbiyaning muhim sohasidir. Musiqaning bola hissiyoti va shakllanishiga, uning mazmunini tushunish va his etishga katta ta'sirini hisobga olganda to'g'ri aks ettirilgan musiqali asarlardan o'rinli foydalanish alogida o'rin tutadi. Musiqali obrazlar shakllanishining asosiy manbai tabiat va kishi nutqiga mos kelishiga, atrof-olamdagi go'zallikni idrok etishiga bevosita bog'liqdir. Musiqqa bolalar uchun quvonch va kechinmalar dunyosi bo'lib, musiqiy va amaliy faoliyat turlarida namoyon bo'ladi, ya'ni musiqqa tinglash, qo'shiq aytish, musiqqa jo'rligida xarakter qilish va bolalar musiqqa asboblari chalish jarayonida ularda hissiy tuyg'ulari rivojlanib boradi. Musiqqa bolalarni rivojlantirish uchun boy manbadir. Bolalarda hissiyotning rivojlanishiga ko'maklashishi musiqaning eng yaqqol namoyon bo'ladigan rolidir: alla bolalarni tinchlantiradi va xotirjam qiladi, alla eshitib uxlagan bolalar o'z qo'g'irchoqlariga ham alla aytadilar. Har bir madaniyatda mehr-muhabbat va bayramlar haqidagi oddiy qo'shiqlar mavjudki, bolalar ularni yodlay oladilar va bu ularga o'z his- tuyg'ularini ifodalashga yordam beradi. Marsh bolaga faxr tuyg'usini va g'ayrat, tetiklikni bag'ishlaydi.

Musiqqa mashg'ulotlariga qo'yiladigan talablar:

- guruhda ijodiy muhit yaratish;
- bilimlarni ongli o'zlashtirishga erishish;
- ta'lim va tarbiya mushtarakligiga erishish
- musiqqa san'atidagi go'zallikni ko'rish, doimo nafislikka intilish;
- musiqqa asarlarini diqqat bilan tinglashga, kuylanayotgan qo'shiqlarni ifodali ijrosiga erishish;

Yuqoridagi talablardan kelib chiqqan holda mashg'ulotni rejalashtirishda quyidagilarga e'tibor berishi kerak: musiqqa tinglashda rasmlardan, bastakor va kompazitor portretlaridan, xilma-xil rangdagi shakllardan foydalanish, ovoz sozlash mashqlarida musiqali zinacha ko'rgazmali qurollardan, tarqatma test banklaridan va rasmlardan foydalanish, qo'shiq aytishda rasmlarga qarab qo'shiq nomini topish, laparlar va raqslarda katta rasmi kubiklardan, magnit tasmlardan foydalanish, musiqali xarakterli va obrazli o'yinlarni o'rgatilganda shu o'yinga mos atributlarni tayyorlab fikrlashga o'rgatish, sahnalashtirilgan jarayonda bolalarni mustaqil xarakter qilishlariga imkon yaratadi va katta o'rin egallaydi.

Yuqorida ko'rsatilgan tavsiyalar mashg'ulot jarayonida o'z samarasini beradi. Bolalarning musiqqa tafakkurini rivojlantiradi. Idroki va hissiyotini tarbiyalaydi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida to'g'ri tashkillashtirilgan musiqqa mashg'ulotlari jikki kichkintoylarda psixologik jarayonlarning rivojlanishiga, shuningdek kuylash, tinglash, musiqiy-ritmik harakatlar bajarish ko'nikmalari hosil bo'lishiga zamin yaratadi. Bu esa bolajonlarning kelajakda barkamol shaxs sifatida kamol topishlariga poydevor bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Sh.Mirziyoyev "Qonun ustivorligi va inson manfaatlarini taminlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining roli"-T.O'zbekiston, 2017y
2. R.G.Qodirov. Musiqqa psixologiyasi. "Musiqqa" nashriyoti, T., "2005y.
3. N.Yusupova. Musiqqa savodi, metodikasi va ritmika. "Musiqqa" nashriyoti, - T., 2010y
4. N.Raxmatova. "Yoshlarning ma'naviy kamolotida musiqiy tarbiyaning roli" Xalqta'limi. №4 T, 2005 yil



О'ЗБЕК MUSIQA MADANIYATIDA XALQARO FESTIVALLARNING O'RNI

A'zamova Dilnavozxon Mansurxo'ja qizi

Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy
musiqa san'ati instituti 4-bosqich talabasi
Telefon: +998(91) 286 12 98
dilnavozazamova9@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida o'tkazilayotgan xalqaro festivallar va ularning yurtimiz taraqqiyoti yo'lidagi ahamiyati xususida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Festival, Xalqaro festivallar, "Sharq taronalari", "Boysun bahori", "Asrlar sadosi", Maqom san'ati anjumani, "Xalqaro baxshichilik festivali".

Bugungi kunda ko'plab sohalarga, xususan, musiqaga ham ko'rsatilayotgan yuksak e'tibor yurtimiz taraqqiyoti, xalqimiz madaniyatining yuksalishida katta ahamiyatga ega. Qadimiy chashmalardan ozuqa oluvchi san'at turlarimiz yangicha tafakkurimiz qatori mustaqillik yillarida o'zgacha e'zoz va e'tibor topmoqda.

Xalqlarning turmush tarzi, ma'naviy merosini tadqiq etishda milliy san'atimizning noyob durdonalari juda qimmatbaho manbaa. Bular nafaqat san'at tarixining bo'sh yerlarini to'ldiradi, balki, ijtimoiy ruh akslarini, badiiy tushuncha va tafakkurlarni o'rganish nuqtai-nazaridan ham muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbek musiqasining rivojlanishi azaldan ilm-fan taraqqiyoti bilan chambarchas bog'liqdir. Yurtimizda o'tkazib kelinayotgan xalqaro festivallar musiqamizning amaliy negizlari uzoq o'tmishdan beri davom etib kelayotganligi va o'zgacha jozibasini boshqa xalqlarga ham ko'rsatish imkonini bermoqda. Festival so'zi lotincha *festivus* – quvnoq, bayramona so'zlaridan kelib chiqqan bo'lib, musiqa san'ati yutuqlarining namoyishidir. Festivallar asosan, diqqatga sazovor hudud yoki taniqli ijodkorlar hayoti bilan bog'liq bo'lgan joylarda o'tkaziladi. O'zbekistonda Samarqand, Buxoro, Shahrisabz, Tuproq-qal'a kabi tarixiy shaharlarimizda turli xil festivallar o'tkazish an'anaga aylangan. Bu festivallarga turli mamlakatlardan eng yaxshi ishtirokchilar tashrif buyurishadi. Odatda, festivallar ma'lum bir vaqtda - har yili, ikki yilda bir, uch yilda bir yoki undan kam muddatda (5-10 kundan 2-3 oygacha davom etishi mumkin) o'tkaziladi. An'anaviy festivallar, asosan, iste'dodlarni namoyon etish, musiqiy san'atni targ'ib qilish, xalqlar o'rtasidagi madaniy aloqalarni rivojlantirishga qaratiladi. Ba'zi festivallar sayyohlarni jalb qilish maqsadida otkaziladi. Sababi, yaxshi musiqa festivali mamlakat imidjiga ta'sir etib, turizm rivojlanishida sezilarli ijobiy natija keltirishi mumkin. Festivallarning tematik doirasi xilma-xil bo'lib, ulardan – ayrim yo'nalishlar uchun, ijodkorlarga yoki ijrochilarga bag'ishlangan kabilarni keltirish mumkin. Har bir festival o'z logotipiga, ba'zan madhiyasiga ham ega bo'ladi. O'zbekiston hududida o'tkazilayotgan festivallardan biri "Sharq taronalari" xalqaro musiqa festivalidir. Ushbu festival 1997-yildan beri O'zbekiston respublikasi birinchi prezidenti I.A. Karimov tashabbusi bilan Samarqand shahrida o'tkazib kelinmoqda. Muntazam ravishda 2 yilda bir marotaba tashkil etiladi. Ushbu festivaldan ko'zlangan masad va vazifalar mavjud. Masalan, milliy musiqa san'atimizning eng sara namunalarini ommalashtirish, saqlash va rivojlantirish, xalqaro ijodiy aloqalarni yanada kengaytirish kabilar. Ushbu festivalda 1997-yili 31 mamlakat vakillari, 2009-yili 50 mamlakat, 2019-yilda esa 75 mamlakat vakillari ishtirok etishgan. Bunda ko'rinib turibdiki, yillar o'tgani sayin ushbu festival qamrovi va qiziquvchilari soni ortib bormoqda.

"Boysun bahori" festivali ham yurtimizning go'zal tabiati, qadimiy madaniyati, o'ziga xos folklor musiqasi va og'zaki ijodiyoti, hunarmandchiligi, milliy liboslari, an'alarini rivojlantirishga va keng ommaga tanishtirishga qaratilgan. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 23- yanvardagi qaroriga asosan, Surxondaryo viloyati, Boysun tumanida o'tkazilib kelinmoqda. Ushbu festivalda yurtimizning turli hududidan kelgan baxshi-oqinlar va badiiy jamoalar o'zlarining chiqishlari orqali an'anaviy maydon tomoshalariga o'zgacha shukuh bag'ishlaydi. Bundan tashqari, festival doirasida tosh ko'tarish, arqon tortish, varrak sayli kabi turli hil xalq o'yinlarining o'tkazilishi xalqimizning davom etib kelayotgan an'ana, urf-odatlarini namoyon etadi.

2001-yilda YuNESKO tomonidan Boysun 2001- yilda "Insoniyatning og'zaki nomoddiy



merosi durdonasi” sifatida e’tirof etilib, 2008- yilda Insoniyatning nomoddiy madaniy merosi representativ ro’yxatiga kiritilgan.

An’anaviy o’zbek madaniyati festivallaridan yana biri – “Asrlar sadosi”dir. Bu festival ham har gal o’n minglab mahalliy va xorijiy sayyohlarni jalb qilgan. Festivalda milliy an’analarimiz, urf-odatlarimiz, hunarmandchiligimiz, turli hildagi milliy taomlarimiz, og’zaki va nomoddiy madaniy meroslarimiz namoyish etiladi.

2018-yili Qashqadaryo viloyatining Shahrisabz shahrida, O’zbekiston respublikasi Madaniyat vazirligi tomonidan Maqom san’ati anjumani tashkillashtirildi. Ushbu anjuman har ikki yilda bir marta o’tkazilishi rejalashtirilgan.

Festivalning asosiy maqsadi O’zbek milliy maqom san’atining noyob namunalarini keng targ’ib qilish, uni asrab avaylash va rivojlantirish, yosh avlod qalbida milliy mumtoz san’atimizga hurmat va e’tibor tuyg’ularini shakllantirish. Milliy ohanglarimizni tinglab ulg’aygan insonlarning dunyoqarashi, fikrlashi, sabrlilik kabi xususiyatlarida sezilarli darajada o’zgarish bo’ladi. Bugungi kundagi maqom san’atiga ko’rsatilayotgan e’tibor va amalga oshirilayotgan ishlardan aynan, yosh avalodni barkamollik sari chorlash nazarda tutilgan.

“Xalqaro baxshichilik festivali” ham xalqimizning nomoddiy madaniy meroslarini asrash, keng ommaga targ’ib qilishda alohida ahamiyat kasb etadi. 2019-yil Termiz shahrida o’tkazilgan ushbu festivalga har bir festivallar kabi katta tayyorgarlik ko’rilgan. Albatta, bu shahar obodligiga, chiroyiga yanada ko’rkamlik baxsh etadi.

Inson tafakkuri o’sib borgani sayin, ko’plab sohalar yuzaga kelgan va rivojlangan. Bu sohalar qatori musiqa ham, zamonlar silsilasi osha charxlangan. O’tkazilayotgan barcha xalqaro festivallar turli xalqlar o’rtasida do’slik, birodarlik rishtalarini mustahkamlash, ijodiy hamkorlik, madaniy-ma’naviy munosabatlar doirasini xalqaro miqyosda kengaytirish maqsadida tashkil etilgan.

Adabiyotlar:

1. Алексеев Э.Е. Фольклор в контексте современной культуры: Рассуждения о судьбах народной песни. – М.: Сов. композитор, 1988. – 238 с.
2. Каримов И.А. Речи на открытии фестивалей
3. Мирзиёев Ш.М. Речи на открытии фестивалей
4. Фестивали музыкальные. // МЭ в 6-ти тт.
5. Фестивали музыкальные. Музыкальный энциклопедический словарь. 1990.
6. Культурная политика // Культурология



MUSIQA TINGLASH BADIY TA'LIM VOSITASI

Raxmonberdiyeva Surayyo Mirg'aniyevna

Nizomiy nomidagi TDPU o'qituvchisi.

Telefon: +998946089410

s.raxmonberdiyeva@yandex.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada musiqa tinglash orqali bolalarda musiqani, uning obrazlari vositasida hayotni, borliqni anglash va bilish qobiliyati rivojlanib borishi haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: Qobiliyat, hissiyot, idrok, repertuar, qo'shiq, taassurot, san'at, taassurot, asar, ifoda vositalari.

Musiqa tinglay bilish va undan zavqlana olish katta san'at hisoblanadi. Musiqa tinglash badiiy ta'limning muhim vositalaridan biridir. Insonda musiqa tinglash madaniyati yoshlikdan rivojlana boshlaydi. O'quvchilar musiqa darslarida barcha faoliyatlar jarayonida, musiqani tinglab, uni idrok etadilar. Musiqa tinglash orqali bolalarda musiqani, uning obrazlari vositasida hayotni, borliqni anglash va bilish qobiliyati rivojlanib boradi. Musiqa darslarining musiqa tinglash qismi oldida, o'ziga xos jiddiy vazifalar turadi. Avvalo, shuni eslatish lozimki, insonda kuylash imkoniyatlariga ko'ra, tinglash imkoniyatlari ancha keng bo'ladi. Masalan: cholg'u ijrosidagi asarlarni kuylab emas, balki faqat tinglab idrok etish mumkin. Shuning uchun ham musiqa tinglash jarayonida o'quvchilarning badiiy idroki yaxshi rivojlanib boradi.

Musiqaning bola hissiyoti va shakllanishiga, uning mazmunini tushunish va his etishga katta ta'sirini hisobga olganda, haqqoniy va voqelikni to'g'ri aks ettirgan musiqali asardan o'rinli foydalanish alohida o'rin tutadi. Demakki tinglash uchun tanlanadigan asarlar repertuari o'quvchilarning yoshi va idrok etish qobiliyatiga mos, o'tmish va hozirgi zamonning yuksak g'oya va obrazlarini aks ettiradigan, mazmuni bilan go'zal va hayotbaxsh, nafis va xushohang yangraydigan bo'lmog'i lozim. Shundagina tinglangan asarlar o'quvchilarning ahloqiy-estetik hissiyotlarini, zarur bo'lgan qobiliyatlarini rivojlantiradi. Musiqa darslarida musiqa tinglash uchun quyidagi talablarga ko'ra asarlarni tanlash tavsiya etiladi:

- O'quvchilarning idrokiga mos xalq, mumtoz va zamonaviy musiqiy asarlari tinglash;
- O'quvchilarni musiqani idrok etish va musiqiy asarda tasvir etilgan badiiylikni his qilish qobiliyatini rivojlantirish;
- Musiqa haqida boshlang'ich ma'lumot berish, tinglangan asarlar nomlarini eslash, ularning mazmuni, xarakteri va ifoda vositalarining farqini bilish hamda tinglangan asarga ma'lum darajada baho bera olish;
- Musiqa asarlarini ishtiyoq bilan tinglash va eslash, olgan taassurotlar haqida o'ylash va fikr bildirish;
- Musiqa tinglashda turg'un diqqat-e'tibor va tinglash madaniyatini boshlang'ich elementlarini shakllantirish;
- Musiqaiy didni shakllantirishga oid qiziqarli, mazmunli asarlarni tinglash.

Har bir musiqa asari zamirida ma'lum voqelik, his-tuyg'u va fikrlar yotishi haqida o'quvchilarga, ularning hayotiy tajribalariga tayangan holda tushuncha berib borishi lozim. Bu asta-sekin musiqaviy taassurotlar va ma'lum tajribalar zamirida vujudga keladi. Shundagina, bolalarda bo'ladigan zavqlanish, ajablanish, quvonish, qayg'urish, o'ylanish kabi holatlarni kuzatish mumkin.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, musiqa tinglash faoliyati, nafosat tarbiyasining muhim omili bo'lib, yosh avlodni estetik jihatdan kamolga yetishishi uchun ta'sir etuvchi jarayon bo'lib, o'quvchilarning ichki dunyosini boyitib, butun hayoti mobaynida unga hamroh bo'lib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. R.G.Qodirov. Musiqa psixologiyasi. "Musiqa" nashriyoti, T., "2005y.
2. G.Sharipova. Musiqa o'qitish metodikasi. "Musiqa" nashriyoti,- T., 2014y
3. Munavvarov A. K "Pedagogika" Toshkent: "O'qituvchi" 1994.
4. N.Raxmatova. "Yoshlarning ma'naviy kamolotida musiqiy tarbiyaning roli" Xalq ta'limi. №4 T, 2005 yil



MUSIQA DARSLARIDA ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Xudayberganova Ruhsora Norimboyevna

Xorazm viloyati shovot tumani
2-maktab musiqa fani o'qituvchisi.
Email: ruhsora2maktab@umail.uz

Annotatsiya: ushbu maqolada O'zbekiston tarixining predmeti va dolzarbligi, insonlarning faoliyat davomida qanday ahamiyatlarga ega ekanligi haqida mulohazalar yuritiladi.

Har qanday o'quvchi uchun "o'qish quvonch, quvonch, ajablanib" manbai bo'lishi mumkin bo'lgan sharoitlarni yaratishi mumkinligiga qat'iy ishonchi. O'qishdagi quvonch, o'quvchining har qanday ishida-erishilgan ongdan. Ayniqsa, uning faoliyatining asosiy turi bo'lgan va qolgan o'qishlarida. Quvonch o'z-o'zidan kelmaydi. Uning" yonuvchan " - bu muvaffaqiyat.

Musiqa darslarida an'anaviy va yangi texnika, usullar, o'qitish va nazorat shakllarining kombinatsiyasi o'quvchilarni rivojlantirish va tarbiyalash muammolarini hal qilish, sinfda xotirjamlik, ishonch, sevimli mashg'ulot va yaratuvchanlik muhitini yaratish imkonini beradi. Passiv tinglovchidan bo'lgan talaba ta'lim jarayonida faol ishtirokchiga aylanadi, ta'sir ob'ektidan mavzuga aylanadi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish menga o'quvchilar uchun yorqin, unutilmas, qiziqarli ta'lim berish, mavzuga nisbatan hissiy-ijobiy munosabatni shakllantirish, bugungi kunning haqiqatlariga mos kelish, shuningdek, o'quv-tarbiya jarayonining yuqori samaradorligiga erishishga imkon beradi.

"Musiqa" fanini o'qitish uchun quyidagi ta'lim texnologiyalari va metodlaridan foydalanishga asoslandim:

- Arterapeutic musiqa ta'siri va sog'liqni saqlash texnologiyasi - ta'lim uchun qulay muhitni yaratishga yordam beradi: stress ta'sirini kamaytirish, musiqa uchun ijobiy hissiy muhitni yaratish, biologik ko'rsatkichlarni normallashtirish (nafas olish, qon bosimi, yurak ritmlari), musiqa idrokida eshitish faolligini rag'batlantirish, qo'shiq aytish jarayonida ovozi apparatni takomillashtirish, tiklash eshitish va ovoz o'rtasidagi muvofiqlashtirish (vokal terapiyasi, ritmoterapiya, tabassum terapiyasi va boshqalar), o'pka funktsiyalarini ishlab chiqish, qulay ovoz muhitini yaratish uchun klassik musiqa, o'zgarishlar va boshqalar.

- Shaxsiy yo'naltirilgan texnologiya (tanqidiy fikrlash texnologiyasi) ta'limning qiziqishi va mavjudligini oshirishga yordam beradi. O'qituvchilar quyidagi ko'nikmalarga ega: savollarni aniqlash, asosiy narsani ta'kidlash, taqqoslashni amalga oshirish, sabab-ta'sir munosabatlarini o'rnatish, xulosalar chiqarish.

- Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari axborot oqimlariga yo'naltirish, ommaviy axborot vositalari kanallari orqali tarqatiladigan musiqiy axborotni ongli ravishda anglash, unga nisbatan tanqidiy munosabatni rivojlantirish, loyiha-tadqiqot faoliyatida AKTdan foydalanish, axborot manbalari sonini ko'paytirish, musiqa madaniyati va pedagogik hamjamiyatning yagona axborot makonida interaktiv muloqotni amalga oshirishga qaratilgan.

Muvaffaqiyatli o'qitish shartlaridan biri audio va video darslarida ishlatiladigan sifattir. Musiqa darslarida AKTni o'zlashtirish shakllari test sinovlari, elektron taqdimotlar bilan loyihalarni amalga oshirish bo'ldi. Talabalar uchun musiqa darslarida AKTdan foydalanish yangi shakllar, ta'lim vositasidir. Barcha kompyuter texnologiyalarining mavjudligi va xilma-xilligi (uch o'lchamli, animatsiya, video, ovoz) AKTni ijodkorlik va o'z-o'zini tarbiyalash uchun ta'lim sohasi sifatida ko'rishga imkon beradi.

- Muammoli ta'lim texnologiyasi aqliy faoliyatini faollashtiradi. Talabalar muammoni aniqlash, ikkinchi darajali narsalarni kesib tashlash, asosiy narsani ko'rish qobiliyatiga ega.

- Ta'lim texnologiyasi hamkorlikda o'zaro yordamning kommunikativ ko'nikmalarini, shuningdek, o'z qobiliyatlari tufayli o'rganish qobiliyatini rivojlantiradi.

- Dizayn texnologiyalari maktab o'quvchilarining bilim manfaatlarini rivojlantiradi, ularning ijtimoiylashuvi bugungi kunda musiqa darslarida keng tarqalgan. Loyihalarni tayyorlash va himoya qilishning jamoaviy, guruh, individual shakllari mumkin. Talabalarning loyiha faoliyati o'quv materiallarini o'zlashtirishning oraliq va yakuniy nazorati shaklidir. Loyihani sinfdoshlar,



boshqa sinf o'quvchilari, ota-onalar, tuman aholisi oldida ommaviy himoya qilish maktab hayotidagi haqiqiy badiiy voqea ahamiyat kasb etadi.

- O'yin texnologiyalari talabalarning musiqiy va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi.

- Maktab o'quvchilarining musiqa darslarida assotsiativ-majoziy fikrlashni rivojlantirish texnologiyasi musiqaning boshqa san'at turlari bilan integratsiyalashuviga asoslangan: adabiyot, tasviriy san'at, kino, teatr.

- Idrok jarayonlarini rivojlantirish texnologiyasi talabalarning musiqiy-amaliy faoliyatining barcha turlarini qamrab oladi. Musiqa (hissiy va ongli) hissi musiqiy asarlarning intonatsion-majoziy va janr-uslub tahlillari uslubidan foydalanish jarayonida to'liq shakllanadi.

- Qo'shiq madaniyatini rivojlantirish texnologiyasi xor ijrochiligi madaniyatini shakllantirish uchun muhim bo'lgan vokal-xor qobiliyatlari va ko'nikmalarini ishlab chiqadi.

- Bolalar musiqa texnologiyasi maktab o'quvchilarining vosita faoliyatining amaliy usullarini o'rganish, har qanday harakatni tasvirlash, tasvirlarning plastik ko'rinishlari, maktab o'quvchilarini jismoniy bo'shatish uchun musiqa va vosita mashqlarini qo'llash, charchoqni bartaraf etish, bepul dirijyorlik, musiqa asboblarini taqlid qilish, qo'shiqlarni sahnalashtirish, o'yin bazasiga ega folklor namunalarini "o'ynash".

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Sharipova G. Musiqa o'qitish metodikasi. TDPU, 2004 – yil.
2. Davletshin M. G. Zamonaviy maktab o'qituvchisining psixologiyasi. – Toshkent, - O'zbekiston, 1999 – yil.

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 27-КЎП ТАРМОҚЛИ
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ**

(15-қисм)

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусаҳҳиҳ: Файзиев Фаррух Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 30.04.2021

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000
